RESEARCH CENTRE FOR ISLAMIC HISTORY,
ART AND CULTURE
**ИСЛОМ ТАРИХИ, САНЪАТИ ВА МАДАНИЯТИНИ
ТАДҚИҚ ЭТИШ МАРКАЗИ**

AL-BIRUNI INSTITUTE
OF ORIENTAL STUDIES
**АБУ РАЙҲОН БЕРУНИЙ НОМИДАГИ
ШАРҚШУНОСЛИК ИНСТИТУТИ**

Proceedings of the 18th International Academician Ubaydulla Karimov Conference of Young Orientalists

CURRENT CONDITIONS OF THE PRESERVATION AND RESEARCH OF ANCIENT WRITTEN SOURCES

August 2022, Tashkent, Republic of Uzbekistan

ҚАДИМИЙ ЁЗМА МАНБАЛАРНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ ВА ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

мавзуида 2022 йил август ойида Тошкентда бўлиб ўтган ёш шарқшуносларнинг академик Убайдулла Каримов номидаги XVIII халқаро конференция мақолалар тўплами

Istanbul 2024



OIC | Organisation of Islamic Cooperation
IRCICA | Research Centre for Islamic History, Art and Culture
Alemdar Cd., No 15, Bâbıâli Girişi 34110 Cağaloğlu, İstanbul, Türkiye
Phone | +90 212 402 00 00 Fax +90 212 258 4365
ircica.org ircica@ircica.org
Certificate no. : 75350

Proceedings of the 18th International Academician Ubaydulla Karimov Conference of Young Orientalists Current Conditions of the Preservation and Research of Ancient Written Sources

Sources and Studies on the History of Islamic Civilisation Series; no. 57
© Copyright | IRCICA 2024
ISBN 978-92-9063-439-3
Istanbul 2024

Cataloguing in Publication Data

Ubaydulla Karimov International Conference of Young Orientalists on Current State of the Preservation and Research of Ancient Written Sources (18th: 2022: Tashkent, Uzbekistan)

Proceedings of the 18th International Academician Ubaydulla Karimov Conference of Young Orientalists: Current Conditions of the Preservation and Research of Ancient Written Sources, August 2022, Tashkent, Republic of Uzbekistan = Қадимий Ёзма Манбаларни Мухофаза Қилиш Ва Тадқиқ Этишнинг Долзарб Масалалари: мавзуида 2022 йил август ойида Тошкентда бўлиб ўтган ёш шарқшуносларнинг академик Убайдулла Каримов номидаги XVIII халқаро конференция мақолалар тўплами / edited by Mahmud Erol Kılıç and Bakhrom Abdukhalimov; prepared for publication by Ashirbek Muminov... [et al.].- Istanbul: Research Centre for Islamic History, Art and Culture, 2024.

480 p.: ill.; 24 cm.- (Sources and Studies on the History of Islamic Civilisation Series; No. 57).

Includes bibliographical references.

Text in Uzbek, Turkish and Russian; abstracts in English.

ISBN 978-92-9063-439-3

1. Manuscripts--Uzbekistan--Congresses. 2. Islamic civilization--Uzbekistan--Congresses. 3. Karimov, Ubaydulla, 1920-1997--Congresses. I. Kılıç, Mahmud Erol, 1961- II. Abdukhalimov, Bakhrom. III. Muminov, Ashirbek. IV. Title. V. Series.
091.09587--dc22

Edited by: Prof. Mahmud Erol Kılıç, Prof. Bakhrom Abdukhalimov
Prepared for Publication by: Prof. Surayyo Karimova, Akbar Idiev, Prof. Ashirbek Muminov, Yekta Zülfikar, Abdusattor Jumanazarov, Oysara Madalieva
Page Layout: Selahaddin Uygur
Printing and Binding: www.bilnet.net.tr

МУНДАРИЖА

КИРИШ
Проф. Д-р Маҳмуд Ерол Кылыч **13**

ЎЗБЕКИСТОНДА ШАРҚ ҚЎЛЁЗМАЛАРИНИ САҚЛАШ ВА ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ
Проф. Абдуҳалимов Баҳром Абдураҳимович **15**

XULOSA 19

АННОТАЦИЯ 20

ОПЫТ РАБОТЫ НАСРАЛЛАХА АТ-ТАРАЗИ ПО КАТАЛОГИЗАЦИИ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИХ ФОНДОВ В ЕГИПТЕ
Муминов Аширбек & Байыр Дидар **21**

DUBLET FONDI QO‘LYOZMALARI TAVSIFIGA DOIR
Faromarzi Fayzullo **26**

ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ ДАВЛАТ МУЗЕЙИДАГИ ТАРИХИЙ ҲУЖЖАТЛАРНИ КАТАЛОГЛАШТИРИШ
Султонов Ўктамбек Абдулғаниевич **32**

МУЗЕЙ КУТУБХОНА ФОНДЛАРИ ФАОЛИЯТИ ТАҲЛИЛИ
Идиев Акбар **38**

ҚЎЛЁЗМА ДЕВОНЛАРНИ КАТАЛОГЛАШТИРИШ ПРИНЦИПЛАРИ ВА МУАММОЛАРИ
Эшонова Салимахон Нишонбек қизи **43**

ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ИСЛОМ ЦИВИЛИЗАЦИЯ МАРКАЗИДАГИ МОТУРИДИЙЛИК ТАЪЛИМОТИГА ДОИР ЯНГИ МАНБАЛАР
Ғофуров Азимжон Шарипович **49**

ИСЛОМДА ИНСОН ҚАДРИ ВА МАҚОМИ
Усманов Маҳаммадсидиқ Абдуманнонович **53**

МОВАРОУННАҲР ҚОЗИЛИК ҲУЖЖАТЛАРИ: “АРХИВ”ДАН “КУТУБХОНА” КИТОБ МАТНЛАРИГА КЎЧИШИ
Муҳаммадаминов Саидакбар Абдурашидович **58**

ҚЎЛЁЗМА НУСХАЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ: АНЪАНАВИЙ УСЛУБЛАРДАН ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРГА ЎТИШ
Миркомилов Эркин & Умарова Муяссар **65**

АҲОЛИ ҚЎЛИДА САҚЛАНАЁТГАН НОЁБ МАНБАЛАРНИ СОТИБ ОЛИШ АМАЛИЁТИ: АСОС, БОСҚИЧ ВА МУАММОЛАР
Исламов Шарифжон & Шарипов Бекзоджон **72**

НОДИР ҚЎЛЁЗМА АСАРНИНГ РЕСТАВРАЦИЯ ЖАРАЁНИ: НАЗАРИЯ ВА АМАЛИЁТ
Ходжаева Башорат Зафаржоновна **76**

НОЁБ ҚЎЛЁЗМА АСАР МУЛЯЖИ ҚАНДАЙ ТАЙЁРЛАНАДИ?
Аминов Санжар Сирожжиддин ўғли **80**

БУЮК БРИТАНИЯ ВА ФРАНЦИЯ КУТУБХОНАЛАРИДА САҚЛАНАЁТГАН ТУРКИЙ ҚЎЛЁЗМАЛАР ХУСУСИДА
Джуманиёзова Феруза Джуманазаровна **84**

SULTAN ŞÂHRUH’UN HAZİNE MÜHRÜ BASILAN ESERLER ÜZERİNDE BİR DEĞERLENDİRME
Makhmudjonova Gulzoda **88**

ДОМЛА ИКРОМНИНГ “РИСОЛАЙИ ФОРСИЯ ДАР БАЁНИ ВУЖУБИ САТРИ НИСО” АСАРИ ҲАҚИДА
Жамолова Дилноза Муйидиновна **94**

«ТАРЖУМОН АЛ-ҚУРЪОН» АСАРИНИНГ ҚЎЛЁЗМА НУСХАЛАРИ ТАВСИФИ
Мустафаев Достон Шухратович **99**

ДАГЕСТАН – ЖЕМЧУЖИНА АРАБСКОЙ РУКОПИСНОЙ ТРАДИЦИИ НА СЕВЕРНОМ КАВКАЗЕ
Исмаилова Алмаз Мусаевна **103**

“ФАТОВОИ ХОНИЯ” АСАРИНИНГ МУХТАСАРИ ҲАҚИДА
Мамашикуров Бекназар Бобомурадович **112**

ИБН СИНО – СЕВИЛЬЯ ВА ҚУРТУБА ШОҲИ
Маҳмудов Отабек Валижонович **117**

МУСТАМЛАКА ДАВРДА ПАХТАЧИЛИККА ОИД ҲУЖЖАТЛАР ТАСНИФИ
Мирзаев Авазбек Толибжонович **125**

ТАРИХИЙ ҲУЖЖАТЛАР ТАДҚИҚИДА МЕТРОЛОГИЯНИНГ ЎРНИ
Нарзуллаева Ниҳола Абдурахмановна **128**

АБУЛҒОЗИХОННИНГ “ШАЖАРАЙИ ТУРК” АСАРИ ЕВРОПА ШАРҚШУНОСЛИГИДА ЎҚУВ ҚЎЛЛАНМА СИФАТИДА
Тошов Нурёғди Искандарович **131**

МУЛЛА ШАМСИДДИН ШАВҚИЙНИНГ “ТАРИХ-И ШАВҚИЙ” АСАРИ
Қўлдашев Шерали Темиралиевич **138**

“КАШФ АЗ-ЗУНУН” АСАРИДА ҚАЙД ЭТИЛГАН МАРКАЗИЙ ОСИЁЛИК ФАҚИҲЛАР ҲАҚИДА
Маҳкамова Дилёра Шавкатовна **143**

“МАВОҲИБИ АЛИЙЯ”НИНГ ФАКСИМИЛЕ НАШРИ ҲАҚИДА
Лутфиллаев Ҳамидилло Муродиллаевич **150**

ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКИЙ АНАЛИЗ «ЛАТА’ИФ АЛ-АМСАЛ» РАШИДУДДИНА ВАТВАТА
Анварова Маърифат Нарзуллоевна **157**

“РАБИЪ АЛ-АБРОР” АСАРИНИНГ ТУРКИЯ ҚЎЛЁЗМАЛАРИ ХУСУСИДА
Тўраев Лазиз Абдивали ўғли **164**

РОЛЬ КЛИНОПИСНЫХ ДОКУМЕНТОВ ИЗ КЮЛЬТЕПЕ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ ДРЕВНЕЙ АНАТОЛИИ
Шалдарбекова Ажар Беккеновна **169**

TİMUR DÖNEMİ NEBATÎ NAKIŞLARI: SEMERKAND TUMAN AKA MAKBERESİ VE BURSA YEŞİL CAMİİ
Akyüz Merve **175**

САЪДИЙ “ГУЛИСТОН”ИНИНГ ТУРКИЙ ТИЛДАГИ ЯНГИ ТАРЖИМАСИ (XIV АСР ОХИРИ – XV АСР БОШИ)
Эркинов Афтондил Садирханович **179**

FRANSUZ SHARQSHUNOSLIK MAKTABLARI TARIXIDAN
Ostonov Jahongir **184**

ТОЖИК ОЛИМЛАРИНИНГ МУҲАММАД ҲАКИМХОННИНГ “МУНТАХАБ АТ-ТАВОРИХ” АСАРИНИ ЎРГАНИШ БЎЙИЧА ТАДҚИҚОТЛАРИ
Абдукаримов Джамолиддин Аҳмадалиевич **189**

КУШОН ИМПЕРИЯСИ ВА ХАН, ВЕЙ СУЛОЛАЛАРИ МУНОСАБАТЛАРИ
Азимов Хуршид Хакимович **194**

СЕРГЕЙ ЮРЕНЕВ МЕРОСИДА БУХОРО ТАРИХИ МАВЗУСИ
Болтаев Аъзам Ҳомидович **198**

АЛ-БАЛОЗУРИЙНИНГ “ФУТУҲ АЛ-БУЛДОН” АСАРИДА ШОШ ФАТҲИНИНГ ЁРИТИЛИШИ
Алимов Зуҳриддин Исамутдинович **202**

«ЖАҲОНГИРНОМА» АСАРИДА БОБУРИЙЛАР ДАВЛАТИ ВА МОВАРОУННАҲР МУНОСАБАТЛАРИ
Йўлдашев Ботир Ўролович **207**

ВОСТОЧНЫЕ НАРОДЫ НА СТРАНИЦАХ «ПОВЕСТИ ВРЕМЕННЫХ ЛЕТ»
Пилипчук Ярослав Валентинович **210**

АМИР ТЕМУР ШАХСИГА ОИД ТАРИХИЙ ТАСАВВУРЛАР ТАҲЛИЛИ
Султонов Комилжон Аслонович **220**

УБАЙДУЛЛАХОННИНГ ШАЙБОНИЙХОН ҲАРБИЙ ЮРИШЛАРИДАГИ ИШТИРОКИ
Файзуллаев Фаррух Эшқабулович **227**

“ТАФҲИМ” АСАРИДА КЕЛТИРИЛГАН ТУРКИЙ ХАЛҚЛАР ТЎҒРИСИДА МАЪЛУМОТЛАР
Куранбаева Умида Султанназаровна **232**

АМУДАРЁНИНГ ИРМОҚЛАРИ ВА ЧОРРАҲАЛАРИ “БОБУРНОМА”ДА
Шарипов Азизжон Азимович **239**

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ «БОЛЬШОЙ ИГРЫ»: ТУРКЕСТАН В РАБОТАХ АНГЛОЯЗЫЧНЫХ АВТОРОВ
Абдурасулов Хушнуд Абдуллаевич **253**

“AL-OSOR AL-BOQIYA” ASARINING O‘RGANILISHI MUAMMOLARI
Usmonov Husan Toshtemirovich **261**

РОЛЬ УБАЙДУЛЛА-ХАНА В РАЗВИТИИ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ШЕЙБАНИДАМИ И ОСМАНАМИ
Разаков Фаррух Абдумўминович **267**

ФИТРАТНИНГ “ДЕВОНУ ЛУҒОТИ-Т-ТУРК” ГА ОИД МАНБАШУОСЛИК ВА МАТНШУНОСЛИК ТАДҚИҚОТЛАРИ
Сатторова Зилола Исмаиловна **274**

“АМУДАРЁ БЎЛИМИ ДЕВОНХОНАСИ” ҲУЖЖАТЛАРИДА ЎЛКА СОЛИҚ ТИЗИМИ
Абдухалилова Азиза Эркиновна **281**

BOYMIRZA HAYITNING “TURKISTON: RUSIYA VA XITOY ORALIG‘IDA” KITOBI MUHIM MANBA SIFATIDA
Tojiyev Dostonjon Beknazar o‘g‘li **287**

СУФИЙСКИЕ И КОРАНИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В “ДИВАНЕ” ДЖАХАНШАХА ХАГИГИ КАРАКОЮНЛУ
Гаджиева Кёнюль Гамидовна **293**

НАВОИЙНИНГ XVI АСРГА ОИД “ТЕРМА ДЕВОН”ЛАРИ ТАРКИБИ: ҒАЗАЛДАН БОШҚА ЖАНРЛАРИ ТАДҚИҚИ
Мадалиева Ойсара Рустамовна **298**

XVI-XVII АСР МАНБАЛАРИДА МУҲАММАД ШАЙБОНИЙХОН АДАБИЙ КЕЧАЛАРИ
Қораев Шерхон Пўлатханович **323**

“MAORIF VA O‘QITG‘UVCHI” JURNALIDAGI NAZMIY ASARLARNING GRAFIK SHAKLLANTIRILISHI
Soatova Gulzoda Nurmamat qizi **332**

ДЎСТМУҲАММАД ФИРОҚИЙНИНГ ТУРКИЙ ДЕВОНИГА ОИД АЙРИМ МУХАММАСЛАР ХУСУСИДА
Зокирова Дурдона Собиржон қизи **339**

“ҚАЛОИДУ-Л-АДАБ”ДА ШАРҚОНА АХЛОҚНИНГ АКС ЭТТИРИЛИШИ
Шерова Мавзуна Маъмуровна **344**

КУЛ ТИГИН ВА БИЛГА ХОҚОН БИТИГЛАРИДА КЕЧГАН ХОҚОН СЎЗИНИНГ ЧОҒИШТИРМА ТАҲЛИЛИ
Содиқов Қосимжон Позилович **350**

МОНИЙ ХАТИНИНГ ТУРКИЙ ТИЛЛИ МАТНЛАРГА МОСЛАШУВИ МАСАЛАСИ
Алимухамедов Рихситилла Абдурашидович **354**

ЧИНГИЗ АЙТМАТОВНИНГ ТУРКИЙ ТИЛЛАР ҲАҚИДА ЛИНГВИСТИК ВАСИЯТИ
Каримов Бахтиёр Раҳманович **360**

АЛИ САФИ КОШИФИЙ ҲАРАВИЙ – МОҲИР ХАТТОТ ВА ХОС КОТИБ (“ШАРҲ-И ФУСУС АЛ-ҲИКАМ” АСАРИНИНГ НУСХАСИ МИСОЛИДА)
Умурзоқов Баҳриддин Сафарович **365**

ЗАМОНАВИЙ АРАБ ВА ЎЗБЕК ҲИКОЯЛАРИДА “ЮСУФНОМА” МАВЗУСИ
Мухиддинова Дилафруз Зуҳриддиновна **371**

ЎРТА АСР МУСУЛМОН ОЛИМЛАРИНИНГ МЕРОСИ ҚИЁСИЙ ДИНШУНОСЛИК ОБЪЕКТИ СИФАТИДА
Абдупаттаев Мумин Мирзо Муроджон ўғли **376**

“МИЪЁР АТ-ТАДАЙЙУН” АСАРИДА ИЙМОН МЕЗОНЛАРИ ВА ДИНИЙ НИЗОЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ УСЛУБЛАРИ
Наимов Исмат Нусратиллоевич **385**

ИСЛОМДА БИЛИМЛАР ТРАНСМИССИЯСИ: ЎЗБЕКИСТОНДА ДИНИЙ АДАБИЁТ ВА ДИН ТАЪЛИМИ ДАРСЛИКЛАРИ
Халилова Зилола Эркиновна **395**

«ШАРҲ АТ-ТАЪАРРУФ» ҚЎЛЁЗМАЛАРИ: ХОЖАГОН-НАҚШБАНДИЯ РИВОЖИДАГИ РОЛИ
Раҳимов Комилжон Раҳматович **401**

ШАРҚ ҚЎЛЁЗМА МАНБАЛАРИНИ АСРАШГА ОИД МУЛОҲАЗАЛАР
Қориев Одилжон Аҳмаджонович **413**

НИЗОМИЙ ГАНЖАВИЙНИНГ “ХАМСА” ДОСТОНИГА ИШЛАНГАН МИНИАТЮРАЛАРДА СЮЖЕТ ВА ОБРАЗЛАР БАДИИЙ ТАЛҚИНИ
Рахматуллаева Асалхон Гайратовна **418**

АБРИ БАҲОР САНЪАТИНИНГ ҚАЙТА УЙҒОНИШИ (Муқовасозлик санъати мисолида)
Саидова Нодира Ғанишер қизи **426**

АБУ РАЙҲОН БЕРУНИЙ НОМИДАГИ ШАРҚШУНОСЛИК ИНСТИТУТИ ХАЗИНАСИДАГИ МЎЪТАБАР ҚЎЛЁЗМАЛАР ВА НАФИС МЎЪЖАЗ РАСМЛАРНИ ЎРГАНИШ
Мадраимов Абдумажид Абдураимович **432**

ОТЧЕТЫ ДОМОВ-МУЗЕЕВ ТАШКЕНТА КАК ИСТОРИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК
Муродов Абдували Мухтор угли **439**

ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ “ИСБОТ АЛ-‘ИЛАЛ” АСАРИДАГИ ФИҚҲИЙ ҚАРАШЛАРИ ТАҲЛИЛИ447
Усмонов Иброҳим Собирович **447**

АВТОРЛАР 457

ИЛЛЮСТРАЦИЯЛАР 461

FROM THE HISTORY OF FRENCH SCHOOLS IN ORIENTAL STUDIES

FRANSUZ SHARQSHUNOSLIK MAKTABLARI TARIXIDAN

Ostonov Jahongir
Ostonov Jahongir

This article contains information on the history, causes, conditions of the emergence of Oriental studies in France, and the activities of Orientalists who worked in it. Also, the article contains opinions about the history of organizations engaged in Oriental studies, their main trends and topics. In particular, the activities of the main organizations where Oriental studies are taught as a science and studied as a scientific discipline in France were highlighted. Among such institutions, we studies the history and present of such organizations as *Collège de France, Institut Nationale des Langues et Civilisations Orientales* (INALCO), *Société asiatique*. It was analyzed in what directions these organizations operated when they were first formed, and how they underwent changes in terms of topics later. In addition, information was provided about the contribution of these organizations to the study of Central Asia and their scientific research on the history of the region.

“Sharqshunoslik” atamasi XIX asrda vujudga kelgan bo‘lib, unga G‘arbiy Yevropa davlatlarining Sharqqa yurishlari turtki bo‘lib xizmat qilgan. Asosan, Sharq mamlakatlari tili, madaniyati, san’ati, tarixi, dini kabilarni o‘rganadigan fan yo‘nalishi hisoblanadi. Atamaning paydo bo‘lishi yaqin tarixga borib taqalsa-da, Sharqni o‘rganish tarixi ancha qadimroqdir. G‘arbdagi ilk sharq tillarini o‘rganish harakatlari XII-XIII asrlarga borib taqaladi. Bu ishning boshiga Rim cherkovi turgan va Studia Linguarum tashkil qilingan. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad Islom yerlarida asirga tushgan asirlarni ozod qilish bo‘lgan. Shunday qilib, ilk bunday maktab XII-XIII asrlar orasida Tunisda Raymond Penafort tomonidan tashkil etilgan [3, 29]. 1311-yilga kelib, Vena Kengashi Parij, Bolonya, Oksford, Salamanka va Rim universitetlarida sharq tillarini o‘qitadigan maktablar ochish haqida qaror qabul qildi [3, 29].

Fransiyada fan yo‘nalishi sifatida sharqshunoslik (études orientales) XVII asrda rivojlandi, degan fikrni ilgari suradi Henry Laurens [6, 103-128]. Uning fikricha, Fransiyada arab tilini o‘rganish va o‘rgatish o‘rta asrlarda (Moyen Age) boshlangan bo‘lsa ham, aynan fan yo‘nalishi sifatida XVII asrda davlatning tashabbusi bilan ma’lum yo‘nalishga kirib oldi.

Mazkur yo‘nalishning rivojlanishida bir qator tashkilotlar katta rol o‘ynagan. Bu tashkilotlarda sharqshunoslik fan sifatida takomillashib bordi. Ana shunday tashkilotlarning birinchisi Collège de France edi [5, 125-148]. Tashkilotning dastlabki nomi Collège royal (Qirollik kolleji) edi, keyinchalik Collège impérial nomi bilan ataldi. Hozirgi nomini esa 1870-yilda qabul qilgan.

Bu yerda uzoq vaqt davomida arab va ibroniy tillari asosiy o‘rgatiladigan sharq tillari bo‘lib keldi [5, 125-148]. XVII asr boshidan to 1774-yilgacha ikkita arab tili fakulteti mustaqil ravishda faoliyat olib bordi [8]. 1774-yildan boshlab, ikkinchi arab tili bo‘limi turk hamda fors tili bo‘limiga o‘zgardi. 1806-yildan boshlab, fors va turk tillari alohida o‘qitiladigan bo‘ldi. Fors tili kafedrasining ochilishiga imperiyaning Eron (bu paytda Qojarlar sulolasi hukmronlik qilar edi, g‘arb tarixchiligida hudud Eron deb atalagan, ammo biz bilgan Eron atamasi Pahlaviylar davridan iste’molga kiritilgan) bilan yaqinlashuvi sabab bo‘ldi. Ushbu fakultetni boshqarish esa, o‘sha paytning eng mashhur sharqshunosi Silvestr de Sasiga topshirildi.

Tashkilotning yana bir muhim yo‘nalishi sifatida arab tili kafedrasidan ajralib chiqqan, suryoniy tili kafedrasi edi. Ushbu yo‘nalishda ijod qilgan sharqshunoslardan Bartolomey Herbelo bo‘lib, mashhur Bibliotheca Orientalis asarining muallifidir. Bulardan tashqari, muassasada misrshunoslik, xitoyshunoslik, hindshunoslik, yaponshunoslik yo‘nalishlari ham uzoq yillardan buyon o‘rgatilib kelinmoqda.

Kollejning biz uchun muhim bo‘lgan bo‘limi “Langues, histoire et archéologie de l’Asie centrale” ya’ni, “Markaziy Osiyo tili, tarixi va arxeologiyasi” deb nomlanadi hamda 1911-yilda ochilgan. Bu bo‘limga Pol Pelliot rahbarlik qilgan. Keyinchalik, 1965-1977-yillar davomida bo‘limni boshqargan Luis Hambis davrida bo‘lim “Histoire et civilisations de l’Asie centrale” ya’ni, “Markaziy Osiyo tarixi va sivilizatsiyasi” deb nomlandi [9]. Hozirda esa, mazkur bo‘lim “Histoire et cultures de l'Asie centrale préislamique” ya’ni, “Islomdan oldingi Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati” deb nomlanadi. Mazkur bo‘limni mashhur sharqshunos Franz Grene boshqarib, qator ilmiy izlanishlar olib bormoqda [10].

Yana bir sharqshunoslikka ixtisoslashgan muassasa “Institut national des langues et civilisations orientales - INALCO”, ya’ni Sharq tillari va sivilizatsiyasi milliy instituti hisoblanadi. Mazkur muassasa 1795-yilda sharqshunos Lui Langle tashabbusi bilan tashkil etilgan [4, 983-996]. Uning dastlabki nomi École spéciale des Langues orientales (Sharq tillari maxsus maktabi) edi.

Langle 1790-yil Fransiya parlamentiga Parij va Marsel shaharlarida arab, turk va fors tillari kafedralarini ochish taklifini kiritadi. Buni esa savdo, fan va adabiyotni kengaytirishda sharq tillarining o‘rni muhim ekanligi bilan asosladi [5, 125-148].

Bundan oldin faoliyat yuritib kelayotgan Collège de France ko‘proq ilmiy izlanish va yuqori elita uchu xizmat qilgan va Ecoles des jeunes des langues’da diplomatik korpuslar uchun tarjimonlar tayyorlangan. Langlening niyati esa aynan o‘qitishga mo‘ljallangan sharqshunoslik muassasasi paydo bo‘lishi kerak edi. Ammo bu taklifni Parlament dastlab rad etadi. Keyinchalik, uning Xalq ta’limi qo‘mitasi a’zosi Jozef Lakanal bilan yaqinlashishi o‘z g‘oyasini amalga oshirishida qo‘l keldi.

Shunday qilib, yangi tashkil etilgan muassasada dastlab o‘qitilgan tillar arab, fors, turk, Qrim tatar va malay tillari bo‘lgan. Shuningdek, zamonaviy yunon tili ham asosiy o‘qitiladigan tillardan bo‘lgan. Arab tilidan mashhur sharqshunos Silvestr de Sasi, fors tilidan Lui Langle, turk tilidan Amede Jober, zamonaviy yunon tilidan nemis ellinisti Karl Haselar dars bergan. Maktabni vafotiga qadar Lui Langle o‘zi boshqargan [4, 983-996]. Uning vafotidan keyin esa bu lavozimga Silvestr de Sasi

oʻtiradi hamda u ham 1838-yilgacha, vafot etgunga qadar maktabni boshqaradi. Uning davrida maktab katta shuhratga ega boʻladi.

Mavjudligining dastlabi davrida maktab oʻz maqsadidan bir oz ogʻishganini koʻrish mumkin. Lakanal undan koʻproq tarjimonlar tayyorlashda foydalanishni maqsad qilgan edi. Ammo maktab bitiruvchilari koʻproq amaliyotchilar emas, ziyolilar boʻlib chiqdi. Langle hamda Sasi ham olim edi. Ularning birortasi Sharqda yashamagan, mahalliy aholi bilan muloqot qilmagan edi. Ular oʻz bilimlariga kutubxonalarda erishgan edi. Darslarda ham asosan grammatika oʻtilar edi.

Maktab, shuningdek, ikki fransuz ekspeditsiyasida ham qatnashdi. Bular Misr hamda Jazoirdagi harbiy ekspeditsiyalar edi. Maktab oʻquvchisi Jan Jozef Marsel Qohira nashriyotini boshqarib, u yerda "Courrier de l'Egypte", "Décade Egyptienne" kabi Misrga magʻishlangan asarlarni tayyorladi. 1830-yilda Jazoir kampaniyasi davomida Jazoirda maktab oʻquvchilari tashabbusi bilan arab tili kurslari ochildi.

XIX va XX asrlar davomida maktabda ta'lim berish bir muncha kengaydi. Oʻquvchilar soni ham sezilarli darajada oshdi. Darslarni geografik mintaqalar kesimida koʻrib chiqadigan boʻlsak, arab, fors, turk, keyinchalik qoʻshilgan zamonaviy yunon va arman tillari Yaqin Sharqni ifoda etgan. Hindi, siam, kamboj, annamit (vetnam), xitoy, yapon tillari Uzoq Sharqni ifodalagan. Yana bir geografik kategoriyaga Afrika tillarini kiritish mumkin. Ular magʻrib arabchasi, berber tillari, Sudan tillari, malgash va efiop tillaridan tashkil topgan edi. Shuningdek, Sharqiy Yevropada gaplashiladigan rus, chex, polyak, serb-xorvat, bolgar, rumin,venger, fin tillarini oʻqitish ham yoʻlga qoʻyildi. Bularning barchasi oʻsha paytdagi geosiyosiy vaziyat taqozosi ekanligiga shubha yoʻq. Shuningdek, Fransiyaning konolializm siyosati ham sharq tillari oʻqitilishiga yetarli darajada turtki bergan omil edi.

Tillardan tashqari Uzoq va Yaqin Sharq tarixi, geografiyasidan ham bitiruvchilar tayyorlashga katta ahamiyat berilgan. Buning uchun maxsus kurslar tashkil etilgan. Maktab fransuz sharqshunosligida qolgan davlatlardan oʻzib ketishiga yordam berdi. XIX asrning birinchi yarmida bu dargoh Yevropa sharqshunoslarini yetishtirib chiqargan asosiy maskan edi.

1914-yilga kelib maktab nomini oʻzgartirdi va bundan buyon Ecole nationale des langues orientales vivantes (Langues'O) deb nomalana boshlandi. Bu esa 1971-yilgacha davom etdi. Aynan shu yili tashkilot bugungi nomini oladi: Institut national des langues et civilisations orientales. Bugungi kunda bu yerda Markaziy va Sharqiy Yevropa, Osiyo, Okeaniya, Afrika, Amerikaning tub aholi tillari, shuningdek, tegishli mamlakatlarning tarixi, geografiyasi, tuzilmalari, iqtisodi, siyosiy va ijtimoiy hayotini oʻrgatishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Yuqorida keltirilgan ikki dargoh asosan ta'lim bilan shugʻullanadigan muassasalar boʻlib, boʻlajak sharqshunoslarni yetkazib bergan boʻlsa, endigi tashkilot bevosita olimlarni oʻzida jamlagan bir jamiyat edi: La Société asiatique, ya'ni Osiyo jamiyati uyushmasi.

Osiyo jamiyati 1822-yilda tashkil etilgan ilmiy jamiyat boʻlib, uning maqsadi sharq tillarini targʻib qilish, sharqshunos olimlarning asarlari va maʾruzalarini nashr etish hamda har oyda oʻtkaziladigan konferensiyalar atrofida fransuz tilida soʻzlashuvchi ilmiy jamoatchilikni birlashtirishdan iborat.

Uning ilk prezidenti sifatida esa Silvestr de Sasi faoliyat olib bordi. Shuningdek, davrning mashhur sharqshunoslaridan Jean Fransua Shampolyon hamda Ejen Burnuflar ham ilk a'zolardan edi [1, 153-188].

Faoliyati davomida ushbu tashkilot biz yuqorida tilga olib o'tgan INALCO, Collège de France, Académies des inscriptions et des belles lettres lar bilan yaqin aloqalarni rivojlantirdi.

Tashkilotning ilk yig'ini 1822-yil 1-aprel kuni Eron, Mesopotamiya va Misrda ko'p yillardan buyon olib borilayotgan qadimgi yozuvlarni o'qish masalasiga qaratildi. Oradan bir necha oy o'tib 27-sentabr kuni o'zining mashhur Misr ierogliflari siri haqidagi ma'ruzasini taqdim qildi [7, 299].

Jamiyat nufuzi yildan yilga oshib bordi. Davrning bir nechta yirik siyosiy hodisalari sharoitida ham yashab qoldi. Urushlar ham tashkilot faoliyatiga ta'sir qilmadi. Filologiyadan tashqari, jamiyat butun Sharq olamini global o'rganish maqsadida tarix, din, madaniy meros masalalariga ham qiziqdi. Jamiyat tashkil etilganda, uning asosiy tadqiqot doirasi Eron va Mesopotamiya bo'lgan bo'lsa, keyinchalik, Shimoliy Afrikadan tortib, Uzoq Sharqqacha bo'lgan hududlar ham qamrab olindi. 1922-yilda tashkil topishining yuz yilligi sarhisobida aytilishicha, o'sha paytda jamiyatda 13ta bo'lim faoliyat olib borgan. Ular misrshunoslik, ossurshunoslik, bibliya tafsiri, oromiy izlanishlari, efiopshunoslik, islom, armanshunoslik, hindshunoslik, Indoneziya va Hindixitoy, xitoyshunoslik (sinologiya), yaponshunoslik va geografiya. Oradan 50 yil o'tib bo'limlar soni 18taga yetgan va boshqattan tuzib chiqilgan. Ular misrshunoslik, ossurshunoslik, semit izlanishlari, ibroniycha, arabcha, berbercha, turk tili; xristian Sharqi, Qadimgi Eron, zamonaviy Eron, Markaziy Osiyo va mo'g'ul izlanishlari, tibetshunoslik; hindshunoslik, Janubi-Sharqiy Osiyo: Hindixitoy yarim oroli, Malay arxipelagi, xitoy, koreys, yapon taqiqotlari. Bu ikki asrda sharqshunoslikning qanday masshtabda rivojlanganiligini ko'rsatadigan ko'rsatkichdir [2, 51-56].

Osiyo jamiyati hozirda Fransiya va butun dunyoda 500 dan ortiq a'zolarni birlashtirgan. Uning nashr organi "Journal Asiatique" 1822-yildan beri uzluksiz nashr etib kelinmoqda. Tadqiqotlarning bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilinishi, ularning tobora yaqinroq ixtisoslashuvi orqali rivojlanishi uning ikki asrga yaqin vaqt davomida o'z zimmasiga olgan sharqshunoslik mutaxassislarini birlashtiruvchi organ rolini kuchaytiradi. Shuningdek, uning kutubxonasida saqlanadigan sharqshunoslik sohasidagi birinchi darajali meros to'plamlari: nashrlar, Sharq qo'lyozmalari va ilmiy arxivlar mavjud.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fransuz sharqshunoslik maktablari nafaqat Fransiyada, balki butun Yevropada sharqshunoslikning rivojlanishiga tamal toshini qo'yib berdi. Shuningdek, ularning faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, dastlab, ular siyosiy ehtiyojdan tashkil etilgan. Bu muassasalar keyinchalik, siyosiy maqsadlar bilan birga haqiqiy ilm-fan markazlariga aylandi. Til o'rgatishdan boshlangan faoliyat doirasi kengayib turli sohalarni (tarix, geografiya, madaniyat, adabiyot, san'at vh) qamrab oldi. Shu bilan birga, o'rganish geografiyasi ham yildan yilga kengayib bordi. Xususan, Yaqin Sharqdan boshlangan o'rganish obyektlari Uzoq Sharqqacha yetib bordi.

Sharqshunoslik maktablari faoliyatida XIX asr so‘nggi choragi va XX asr birinchi choragida sezilarli o‘sish yuz berganini kuzatish mumkin. Geosiyosiy manfaatlar o‘sib borishi, davlatning Sharqqa qiziqishining ortishiga sabab bo‘ldi. Shuning uchun ham mintaqani o‘rganish ehtiyoji har doimgidan ko‘proq dolzarb ahamiyat kasb etgan. Turli ekspeditsiyalar amalga oshirilgan. Aynan shu davrda Markaziy Osiyoni o‘rganish ham yo‘lga qo‘yilgan. Bir qator fransuz sayyohlari mintaqa haqida sayohatnomalar yozib qoldirganini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Annick Fenet. « Silvestre de Sacy, premier Président de la Société Asiatique », dans Michel Espagne, Nora Lafi, Pascale Rabault-Feuerhahn (dir.), Silvestre de Sacy. Le projet européen d'une science orientaliste, 2014. – P. 153-188.
2. Annick Fenet. Pierre-Sylvain Filliozat et Eve Gran-Aymerich / La Société asiatique, une société savante au cœur de l'orientalisme français, Les Nouvelles de l'archéologie, 110/2007. – P. 51-56.
3. Ina Baghdiantz McCabe. Orientalism in Early Modern France. 2008. – P. 29.
4. Bazin Louis. L'École des Langues orientales et l'Académie des Inscriptions et Belles-Lettres. In: Comptes rendus des séances de l'Académie des Inscriptions et Belles-Lettres, 139e année, N. 4, 1995. – P. 983-996.
5. Dehérain Henri. Les établissements d'enseignement et de recherche de l'orientalisme à Paris, Revue internationale de l'enseignement, tome 93. 1939. – P. 125-148.
6. Henry Laurens. Penser l'orient: Traditions et actualité des orientalismes français et allemand. – Beyrouth: Press de l'IFPO, 2008 // L'orientalisme français : un parcours historique. – 172 p.
7. Jean Lacouture. Champollion, Une vie de lumières. Paris: Grasset, 1988. – 299 p.
8. Paul Casanova. L'enseignement de l'arab au Collège de France, une broch. in-80. – Paris: Paul Gauthener, 1910.
9. Le Collège de France. Quelques données sur son histoire et son caractère propre. L'Annuaire du Collège de France, – P. 5-21// https://journals.openedition.org/annuaire-cdf/126#tocto2n5
10. https://www.college-de-france.fr/site/frantz-grenet/Chaire-Histoire-et-cultures-de-l-Asie-centrale-preislamique.htm